

BO'LG'USI BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Tog'ayeva Oybachin Do'smamat qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativlikning mohiyati, kreativlik atamasi, kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metodlar, o'quvchilarda ham kreativ tafakkurni shakllantirish metodlari va kreativlikning mezonlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativlik mezonlari, kreativ metodlar.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'no mazmuni tushunib olishi talab etiladi. Kreativlik (lot, ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) -individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarashga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik - o'z qiymatiga ega orginal g'oyalar majmui"dir. Gardner esa o'z tadqiqotlarida "kreativlik-shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Olimning yondoshuviga ko'ra kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir. Mazkur atama Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi.

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mutaxassisligini chuqur bilishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, uslubiy modellarni to'g'ri tanlash qobiliyati, ta'lim jarayonidagi ta'sir mazmuni va usullarini loyihalashni bilishi zarur. Shundagina yetuk pedagog bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik sifatlarini amalga oshirishda jamoaning o'rni beqiyos. Bunda o'qituvchi o'quvchilar jamoasini ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan lideriga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarimng huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhini tashkil qilishda ijodiy yondashgan holda amalga oshirsa ko'zlagan maqsadga erishiladi.

Shuningdek, kreativlikning mezonlari sifatida Dj.P. Gilford va E.P. Torrans tomonidan quyidagilar belgilangan:

- ravonlik: ma'lum bir vaqt oralig'ida ko'plab fikrlarni ravon ifodalay olish qobiliyati;
- o'ziga xosligi: aniq, taniqli, umume'tirof etilgan, oddiy yoki qat'iy belgilanganidan farq qiluvchi g'ayrioddiy, nostandart g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- sezuvchanlik: g'ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o'tishga tayyorlik;
- mo'tadillik: g'ayritabiiy kontekstda ishlashga tayyor bo'lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko'rish qobiliyati;
- rivojlanish: paydo bo'lgan g'oyalarni batafsil ishlab chiqish, ularni yanada rivojlantirish qobiliyati;
- ko'p vazifalilik: bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalarda ishlash qobiliyati;
- samaradorligi: berilgan g'oyalarning samarasi yorqinligi va oldindan ko'zlangan maqsadga erishilishi;
- mamnuniyat: kreativlikning natijasi.

O'qituvchining ijodkorligini nomoyon qiladigan jarayon bu- darsdir. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan bilimlarni egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida kreativ sifatlarini rivojlantirishning quyidagi samarali yo'llaridan foydalansa maqsadga muvofiqdir:

- O'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida o'quvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur so'zlarning bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Suvning tabiatda aylanish hodisasini ta'riflab bering o'rniga yog'inlarning (yomg'ir, qor, shudring, do'l va boshqalar) paydo bo'lishi algoritmini (ketma- ketligini) tuzib chiqing. Bunda o'qituvchi har bir jarayonning "bog'liqlikni topishi", "fikrni mantiqan bayon eting", "tasavvur qiling" kabi fikrlardan foydalanish orqali unda kreativ fikrlash ko'nikmasi namoyon bo'ladi.

- Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalansa oldiga qo'ygan maqsadga erishadi.

- O'quvchilarda muammoni yechish va innovatsiyon g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ va ijodiy fikrlashga urg'u berishi lozim. Masalan, suvning tabiatda aylanishi va yog'inlarning paydo bo'lishi o'rtasidagi bog'liqlikni topish". Topshiriqni

bजारar ekan, o'quvchilar tabiatda suvning aylanishi va yog'inlarning paydo bo'lishi tizimi bilan bog'liq [turli muammolarni tahlil qilib](#), xulosaga keladi. Natijada ushbu jarayonda ko'p tamonlama fikrlash, mushohada yuritish ro'y beradi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish ham pedagog faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ma'naviy-ma'rifiy ishlarini tashkil etishga ham ijodiy yondasha olishi zarur. Bunda u quyidagilarga e'tiborni qaratishi lozim:

-ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsaga muvofiq, izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etish;

-o'quv yili uchun puxta asoslangan ma'naviy-ma'rifiy ishlar [rejasini ishlab chiqishi](#);

-rejadan talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan hamda dolzarb mavzulardagi muammolarga bag'ishlangan tadbirlarning o'rin olishiga erishish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ularning yo'nalishi, mazmuni, [xarakteriga](#), ko'lam va xususiyatlariga ko'ra turli shakllardan interfaollik asosida tashkil etilishiga erishish;

- har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirning aniq maqsad asosida tashkil etilishi va albatta, kutilgan natijani kafolatlay olishini ta'minlash;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda akademik guruhning barcha o'quvchilari birdek faol ishtirok etishlariga erishish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'qituvchida kreativlikni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O'qituvchida kreativlikni rivojlantirishda turli xil interfaol metodlarni bilishi va o'z faoliyati davomida samarali foydalanishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib organish, o'z ustida tinimsiz ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har bir o'qituvchi ijodiy o'z-o'zini tarbiyalay olishi zarur. Bunda o'zini o'ziga xos [ijodiy shaxs sifatida anglash](#), uni yanada takomillashtirish va moslashtirishni talab qiladigan kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aniqlash, shuningdek uzluksiz tizimda o'z-o'zini takomillashtirishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бубенов А.В. Коммуникационная культура: Философско-методологический анализ Электронный ресурс.: дис. канд. философ, наук. М., 2006.
2. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. – С. 285.
3. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол укитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. / Монография. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2016. – Б. 77.
4. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
5. . Khandamova Feruza Bakhodirovna. (2023). TEACHER’S SPEECH: GIVING INSTRUCTION TO LEARNERS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(7), 6–10. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/2226>
6. Maslow A. The Farther Reaches of Human Nature NY: Viking, 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books, 1973. Contents.
7. Махаматова, Ф. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.